



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

**ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони**

**Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти**

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда 0561-рақам билан рўйхатга олинган.
ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**
и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**
и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**
PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида тарқатилади.**

**Таҳририят манзили:**
140100, Самарқанд шаҳар, Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Таҳририят кенгаши раиси:**
**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

**Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:**
**Д.Х.Асланова –** СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Таҳрир кенгаши аъзолари:**
**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор
**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.
**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.
**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.
**Р.Х.Эргашев –** ҚарМИИ профессори, и.ф.д.
**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.
**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.
**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари
**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.
**А.Бектемиров –** СамИСИ профессори, и.ф.д.
**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.
**З.Дж. Адилова –** ТДИУ профессори, и.ф.д.
**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори
**Л.Н.Халикова–** СамИСИ профессори, DSc
**Ф.А.Сафаров –** СамИСИ доценти, DSc
**А.М.Каримова–** СамИСИ профессори в.б., DSc

# МУНДАРИЖА:


| | |
|---|---|
| **НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ** | |
| **Кнарик Карапетовна Арабян, Дилбар Хасановна Асланова, Мария Валерьевна Рубель** Развитие предпринимательского мышления: опыт платформы системного развития «Бизнес созидание» | 5 |
| **Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев** Креатив иқтисодиёт индустриясининг мазмуни ва унинг назарий масалалари | 10 |
| **Дилдора Собиржоновна Джураева** Пути повышения уровня жизни населения в Республике Узбекистан: теоретико-методологический анализ и практические рекомендации | 19 |
| **G‘olib Sultonmurodovich Mustafoyev, Sabina Baxtiyor qizi Xudoyberdiyeva** Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillar | 24 |
| **Аскар Хайдарович Джумаев** Хулқ-атвор иқтисодиётининг қисқача мазмун-моҳияти, аҳамияти ва истиқболлари | 28 |
| **Анвар Нематович Холиқулов** Сервис фаолияти маданияти тушунчасининг назарий талқини | 31 |
| **ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ** | |
| **Комил Бахрамович Уразов, Мадина Шайманкуловна Хушмуродова** Тенденции развития электронной торговли в Узбекистане | 35 |
| **Dilafruz Marufovna Vofaxojayeva** Tibbiyot turizmini rivojlantirishda raqamlashtirishning o‘rni | 39 |
| **Наргиза Музафаровна Бабаева** Инновацияларнинг Ўзбекистон иқтисодий ривожланишидаги роли | 45 |
| **САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ** | |
| **Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov** Agroklasterlarni tashkiliy jihatdan optimallashtirish negizidagi kooperatsion aloqa usullari, yo‘nalish va mexanizmlari | 50 |
| **Umar Xudayberdiyev, Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva** O‘zbekistonda go‘sht yetishtirishdagi muammolar va ularning yechimi | 53 |
| **Boburmirzo Botirovich Abduvaxobov** Sutni qayta ishlash korxonalarida ta’minot zanjiri tizimining tashkiliy mexanizmini takomillashtirish | 56 |
| **G‘ayrat Ablaqulovich Ibragimov, Diyora O‘tkir qizi Toshqulova, Shaxnoza G‘ayrat qizi Ablakulova** Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda suv resurslaridan foydalanishning o‘rni | 60 |
| **Akhror Abdihakimovich Shermatov** The importance of intellectual capital in manufacturing enterprises in the economy | 64 |
| **Barno Asatulloyevna Mardanova** Sut mahsulotlari ta’minot zanjiri: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar | 69 |
| **Eldor Toshtemirovich Xamdamov, Shuhrat Saidahmadovich Sharifov** O‘zbekiston qishloq hududlarida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish | 74 |
| **ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС** | |
| **Munavvar Farxod qizi Axrorova** Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida takomillashtirishning istiqbollari | 77 |
| **Sanjar Nasriddinovich Nazarov** Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa-axbarotlashtirish xizmatlarini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish | 82 |

9. Jill E. Hobbs. Food supply chains during the COVID-19 pandemic. Canadian journal of Agicultural economics. 21 April 2020. https://doi.org/10.1111/cjag.12237
10. Kanna K. S., Dr. R. Amudha. Role of Digitalisation and Technology in Dairy Supply Chain Management.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi
12. P.J. Zuurbier, J.H. Trienekens, G.W. Ziggers. Verticale samenwerking. Business Management & Organisation 1996

| **Б.Марданова**<br>**Цепочка поставок молочной продукции: проблемы, возможности и решения** | **B.Mardanova**<br>**Dairy supply chain: challenges, opportunities and solutions** |
|---|---|
| **Аннотация.** В этой статье представлена информация о цепочке поставок и ее происхождении. Рассматриваются типы и характеристики цепочек поставок. Кроме того, показана вся цепочка поставок молочной продукции. Предоставляется информация об участниках. Перечислены проблемы в цепочке поставок молочной продукции и изложены предложения по достижению эффективности цепочки поставок.<br>**Ключевые слова:** молочные фермы, цепочка поставок, прозрачность, эффективность, потребление, цифровые технологии. | **Abstract.** This article provides information about the supply chain and its origins. The types and characteristics of the supply chain are highlighted. In addition, the complete supply chain of dairy products is shown. Information about the participants in it is provided. The problems existing in the supply chain of dairy products are listed and proposals are made to achieve an effective supply chain.<br>**Keywords:** dairy farms, supply chain, transparency, efficiency, consumption, digital technologies. |

**Eldor Toshtemirovich Xamdamov -** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tadqiqotchisi
**Shuhrat Saidahmadovich Sharifov –** Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti, i.f.f.d.

# O‘ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston qishloq hududlarida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, qishloq aholisini yaxshi hayot sharoitlari va maishiy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, shuningdek, qulay xizmat turlari bilan ta’minlashga qaratilgan fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan.
**Kalit so‘zlar:** Xizmat, xizmat ko‘rsatish, maishiy xizmat, xizmatlar sohasi, qishloq farovonligi, farovonlik, qishloq xo‘jaligi.

**Kirish.** Xizmat sohasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida mamlakatning yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadi. Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar sohasining chegaralari to‘g‘risida turli fikrlar mavjud. Jumladan, ushbu sohaga maishiy xizmatlar, yo‘lovchi transporti xizmatlari, aloqa xizmatlari, turar joy kommunal xizmatlari, ta’lim, madaniyat, sanatoriya-sog‘lomlashtirish, huquq sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari bir-biriga o‘xshash xizmatlar kiradi. Xizmat sohasi birinchi galda bevosita iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat namoyon bo‘ladi:

Bunday murakkab iqtisodiy munosabatlarning sodir bo’lishini ta’minlash bevosita ushbu sohada xususiy mulkning ahamiyatini oshirishni taqqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** V.Bobkov, A.Pochinok va boshqa iqtisodchi olimlar “farovonlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishgan: farovonlik – bu aholining hayot uchun zarur moddiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy boyliklar, ya’ni inson ehtiyojlarini qondiruvchi elementlar, xizmatlar va sharoitlar bilan ta’minlanganligidir. Demak, qishloq sharoitida ham aholining turmush farovonligidagi o‘zgarishlarni davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro turmush darajasi ko‘rsatkichlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Aholining turmush darajasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezoni sanaladi, uning amalga oshirilishi esa jamiyat rivojlanishining asosiy maqsadidir. Avvalo, turmush darajasi ikkita tarkibiy qismning birikmasi va o’zaro bog’liqligi bilan tavsiflanadi: aholining moddiy va nomoddiy boyliklar bilan ta’minlangani va ularning iste’mol darajasi .

I.Hasanov, A.Eminovlar bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloqlardagi oilalar daromadlarini ko’paytirish qay darajada tashkil etilayotgani haqida fikr yuritishar ekan ,

A.Qodirov “Ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun respublikamizda qator ijtimoiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kam ish haqi va boshqa to‘lovlar, odatda, oldindan ko‘paytirib kelindi, narx-navo o‘zgarishi bilan bog‘lab olib borildi, bu esa aholi to‘lov qobiliyatining saqlanib qolishini ta’minladi va turmush darajasi keskin pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymadi. Shu tariqa eng kam ish haqini oshirish yo‘li bilan aholi o’rtacha ish haqining, pul daromadlarining ham oshishiga erishildi”, deb ta’kidlaydi . A.Akobirova esa bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi turmush darajasini oshirishning asosiy ko’rsatkichlaridan biri yetarli darajadagi ish haqi ekanligini eslatadi.

R.Karlibaeva, I.Danabaevlar qishloq infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qishloqlarda faqatgina turmush darajasini yuksaltirishni emas, balki ayni yo’nalishdagi barcha soha va tarmoqlarni birdek rivojlantirishni maqsad qilib olishi kerak, degan fikr bildirishadi .

Fikrimizcha, aholining turmush darajasi va sharoitini yaxshilashda ko‘p jihatdan aholi iste’mol darajasini aniqlash, ularni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash, ehtiyojlarini qondirishning shakl va usullarini belgilash istiqbollarini ishlab chiqish uchun modellashtirish masalasiga jiddiy yondashish kerak.

Bu xususda N.Mahmudov “Qishloq taraqqiyoti va farovonligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy modellashtirishga oid masalaga kengroq yondashib, qishloq taraqqiyoti va farovonligini ta’minlash bir-biri bilan bevosita bog‘liq va aloqador, o‘ziga xos xususiyatlarga ega faoliyat asosida amalga oshiriladi”, deb yozadi. Uning uqtirishicha, qishloq aholisi hayotining farovonligi o‘sha yerda ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etishga va boshqarishga daxldor. Ishlab chiqarish jarayoni esa, o‘z navbatida, aniq miqdoriy birliklarga ega ta’minlovchi va xizmat ko‘rsatuvchi sohalar faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir .

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni amalga oshirishda xizmat ko’rsatish va iste’mol jarayonini ko‘rsatkichlarini iqtisodiy-matematik usullar orqali tahlil qilish natijasida xulosa va takliflar shakllantirilgan. Bundan tashqari ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda analiz va sintez usulidan ham samarali foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Aholining turmush sharoiti va farovonligini baholashda uning iste’mol xarajatlari ham beqiyos ahamiyatga ega. Bu xarajatlar holatining tahlili ularni istiqbolli baholashga chambarchas bog‘liq bir qator muammolar hal qilinishi lozimligini ko‘rsatdi. Oldindan istiqbolli baholashni ta’minlash uchun quyidagi axborot manbalaridan foydalanildi:

a) viloyat qishloq aholisining pul xarajatlari va daromadlari dinamikasi;

b) viloyat qishloq aholisining byudjeti;

v) viloyat iste’mol byudjeti.

O‘zaro bog‘liqlikning tahlili davomida qishloq aholisi olgan moddiy ne’matlar va xizmatni oldindan baholash tizimi kelib chiqadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida aholining turmush sharoiti, turmush tarzi va turmush darajasini oshirish uchun har bir mintaqaning iqlimi, urf-odatlari va bozor iqtisodiyoti sharoitlarini hisobga olgan holda, ekonometrik modellashtirishdan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish uchun qator muammolarni hal qilish talab etiladi:

– qishloq bilan shahar o’rtasida xizmat ko‘rsatish sohasidagi tafovutlarni bartaraf etish;

– hududlarda xizmat ko’rsatuvchi bozor infratuzilmasi subyektlarini ustuvor tarzda rivojlantirishni modellashtirish;

– hududlarda xizmat ko‘rsatuvchi bozor infratuzilmasi subyektlari o‘rtasidagi raqobat muhitini yaxshilash;

– hududlarda zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy etib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mukammal texnologik jarayonlarni ustuvor rivojlantirish;

– ishlab chiqarish fondlari va ishchi kuchlarini xo‘jalik oborotiga yanada to‘laroq jalb qilishni, ya’ni jamiyatning chegaralangan resurslaridan to‘g‘ri foydalanishni boshqarishni modellashtirish.

Barchamizga ayonki, bugungi iqtisodiy islohotlar jarayonida yurtimizda qishloqlarni shaharlashtirishga, ya’ni qishloq aholisining turmush sharoiti va farovonligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, bu jabhadagi iqtisodiy

islohotlarni chuqurlashtirish borasida diqqatga sazovor ishlarga qo‘l urilmoqda. Shu asno ishlab chiqarish hajmi hamda texnologik jihatdan yirik bo‘lgani tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Sohada faqat meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik tadbirkorlik subyektlari shakllantirildi.

**Xulosa va takliflar:** Umuman olganda, qishloq hududlarida maishiy xizmatlarni rivojlantirishning bir nechta asosiy yo‘nalishlari mavjud. Infrastrukturani takomillashtirish, xizmat ko‘rsatuvchi markazlarni rivojlantirish, xodimlarni tayyorlash, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va dasturiy tashabbuslar orqali maishiy xizmatlarni yaxshilash maqsadida ishlar amalga oshirilishi zarur.

1. Infrastrukturani takomillashtirish: Qishloq hududlarida maishiy xizmatlarni rivojlantirish uchun, suv, elektr energiya, gaz taminoti, yo‘l va transport tarmoqlari, telekomunikatsiya tizimlari kabi muhim infratuzilmalarining o‘rnatilishi zarur. Bu, aholining yaxshi hayot sharoitlarini ta'minlashda asosiy qadamdir.
2. Xizmat ko‘rsatuvchi markazlarni yaratish: Qishloq hududlarida maishiy xizmatlarni taqsimlash uchun xizmat ko‘rsatuvchi markazlarning o‘rnatilishi muhimdir. Bu markazlar maishiy xizmatlarni tashkil qilish, ta’lim, sog‘lik, ijtimoiy xizmatlar, bozorlar va boshqa xizmatlarni aholi bilan qulaylik bilan taqsimlash imkonini beradi.
3. Xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish: Maishiy xizmatlarni ko‘rsatish sohasida xodimlarimizning kasbiy tayyorlash va malaka oshirishiga e’tibor berishimiz zarur. Xodimlarga qo‘llab-quvvatlash dasturlari, malaka oshirish kurslari va innovatsiya va texnikalar bilan tanishish imkoniyatlarini yaratish maqsadida xizmat ko‘rsatish sohasida xodimlarimizni o‘rganish va rivojlantirish lozim.
4. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash: Qishloq hududlarida maishiy xizmatlarni rivojlantirish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Bu, investitsiyalar, kreditlar, to‘lov tizimlarining takomillashtirilishi va dasturiy tashabbuslar orqali maishiy xizmatlarni oshirish uchun moliyaviy resurslarni amalga oshirishga imkon beradi.
5. Dasturiy tashabbuslar: Maishiy xizmatlarni rivojlantirishda dasturiy tashabbuslar ham muhimdir. Bu, ma’lumot texnologiyalarini rivojlantirish, axborot tizimlarini yaxshilash, maishiy xizmatlarni avtomatlashtirish va monitoring tizimlarini o‘rnatish bilan bog‘liq. Bunday tashabbuslar orqali maishiy xizmatlar samarali va samarador tarzda taqdim etilishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 9-son, 89-modda, 27-son, 326-modda; 2017 y., 15-son, 257-modda, 33-son, 863-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.12.2019 y., 09/19/1014/4173-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi.: Xalq so‘zi gazetasi 2020 yil 25 yanvar № 19.
3. Slovar inostrannыx slov. -16- ye iz.,ispr.-M.: Rus yaz.. 1988 -461 B.
4. Ruscha-uzbekcha lug‘at. 2-tom. T.: 1984. – 410 B.
5. Qudratov G‘.H., PardaevM.Q., Abdukarimov B.A. “Servis rivoji – aholining bandligini ta’minlash va farovonligini oshirish omili”.T.: “Fan va tehnologiya” nashriyoti, 2007. – 12 B.

**Ш.Шарифов, Э.Хамдамов**

**Развитие сферы бытовых услуг в сельской местности Узбекистана**

**Аннотация.** В данной статье идеи и соображения направлены на развитие сферы бытовых услуг в сельской местности Узбекистана, удовлетворение спроса сельского населения на хорошие условия жизни и бытовые услуги, а также предоставление удобных видов услуг.

**Ключевые слова:** Сервис, оказание услуг, бытовое обслуживание, сфера услуг, сельское благосостояние, благополучие, сельское хозяйство.

**Sh.Sharifov, E.Khamdamov**

**Development of the household services sector in rural areas of Uzbekistan**

**Abstract.** In this article, ideas and considerations aimed at the development of the field of household services in the rural areas of Uzbekistan, meeting the demand of the rural population for good living conditions and household services, as well as providing convenient types of services.

**Keywords:** Service, service delivery, household service, service industry, rural welfare, well-being, agriculture.

ISSN 2091-5187

# ☙ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди. Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $_{1/8}$. “Times” гарнитураси. Офсет босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № X-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.